

## “Kundalik elektron kundaligining veb-versiyasi uchun to‘lovni amalga oshirishda 100% keshbek ” aksiyasiga qoidalar kiritish (yangi tahrirda).

2022 yil 31 dekabr

Humans mobil ilovasida va Kundalik.com veb-saytida Kundalik elektron jurnalining veb-versiyasi uchun to‘lovni amalga oshirishda 100% keshbek aksiyasi, 100047, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent, Maxtumquli ko‘chasi, 2 B-uy manzilida joylashgan, STIR 306624856 (Humans) bo‘lgan, Humans mas’uliyati cheklangan jamiyatining Humansga sodiqlik dasturi doirasidagi aksiyasi hisoblanadi:

### 1. Aksiya haqida ma'lumot

1.1 Ushbu Qoidalarining matnida bosh harf bilan foydalanilgan so'zlar atamalar hisoblanadi. Atamalarning ma'nosi, agar ushbu Qoidalarda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, www.humans.uz veb-saytida joylashtirilgan HUMANSga sodiqlik dasturi qoidalarida, “Humans tovarlari va xizmatlari rastasi” xizmatidan foydalanish qoidalarida keltirilgan.

1.2 Aksiya ishtirokchilari – Mijozlar – “Humans tovarlari va xizmatlari rastasi” xizmatidan foydalanuvchi, Humans mobil ilovasida bank kartasini ulagan jismoniy shaxslar, shuningdek kundalik.com veb-sayti foydalanuvchilari bo‘lgan Qoidalarining 2-qismida sanab o‘tilgan harakatlarni bajargan jismoniy shaxslar;

1.3 Aksiya o‘tkaziladigan hudud: O‘zbekiston Respublikasi.

1.4 Aksiya muddati: 26.08.2022 dan cheklanmagan muddatga.

### 2. Aksiyaning tavsifi

2.1 Aksiya vaqtida va ushbu Qoidalarga rioya qilgan holda Aksiya Ishtirokchilari Humans mobil ilovasi va kundalik.com veb-saytida "Humans" orqali to'lash usulini tanlash orqali Kundalik elektron kundaligining veb-versiyasi uchun to‘lovni amalga oshirishda 100% keshbek olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

2.2. Humans xizmatidan foydalanishi to‘xtatilmagan yoki uni to‘xtatmagan “Humans tovarlari va xizmatlari rastasi” xizmatining amaldagi mijozlari, shuningdek, boshqa Humans xizmatlarining (DOS/RBS) mavjud mijozlari aksiyada ishtirok etishlari mumkin.

2.3 Aksiyani o‘tkazish davrida kalendar yil davomida Kundalik elektron kundalik uchun to‘lovni amalga oshirishda har bir foydalanuvchi uchun 80 000 so‘m miqdorida keshbekni hisoblash chegarasi joriy etilgan.

2.4 Ushbu Qoidalarining 2.3-bandidagi cheklov shartlari Humans mobil ilovasida va kundalik.com veb-saytida amalga oshirilgan Kundalik elektron kundalik obunasining barcha versiyalari uchun to‘lovlarga nisbatan qo‘llaniladi.

### **3. Yakuniy qoidalar**

3.1 Ushbu Qoidalar Aksiya boshlangan paytdan boshlab kuchga kiradi. Humans bir tomonlama tartibda ushbu Qoidalarni o'zgartirish, Aksiyaning bekor qilish to'g'risida Humans veb-saytida tegishli xabarni joylashtirish orqali bekor qilish huquqiga ega. xabar berish sanasi tegishli ma'lumotlar Humans saytida joylashtirilgan sana hisoblanadi. Humans veb-saytida tegishli ma'lumotlar e'lon qilingan paytdan boshlab Qoidalar o'zgartirilgan deb hisoblanadi va Aksiya uzaytiriladi yoki bekor qilinadi.

3.2 Ishtirokchi tomonidan Kundalik merchantiga Humans mobil ilovasida yoki kundalik.com veb-saytida Humans to'lov usulidan foydalangan holda to'lovni amalga oshirilishi jismoniy shaxslarga qaratilgan oferta Qoidalarning to'liq va so'zsiz qabul qilinganini anglatadi.